



AHOLINI MOLİYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Sholdarov Dilshod Azimiddin o‘g‘li

“Byudjet hisobi va g‘aznachilik ishi” kafedrasi mudiri. PhD.dotsent.

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

DIRECTIONS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF REFORMS IN THE FINANCIAL SUPPORT SYSTEM OF THE POPULATION

Sholdarov Dilshod Azimiddin o‘g‘li

PhD, Associate Professor,

Department of Budget Accounting and Treasury

Tashkent State University of Economics

JEL Classification: G00,G23

Annotatsiya. Ushbu maqolada, inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga borliq bo‘lmagan sharoitlarda ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalari, rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqa maqsadli yondashuvlarning olib borilishi, kambag‘allik darajasi va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash tartibi xaqida ma‘lumotlar berilgan.

Abstract. In this article, the Universal Declaration of Human Rights, the issue of financial support for the population in need of social protection, social protection in the event of unemployment, illness, disability, widowhood, old age or other circumstances, financial support for the population in need of social protection information on the issue, implementation of other targeted approaches in developing countries, the level of poverty and the procedure for assigning social benefits.

Kalit so‘zlar. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta‘minot, aholini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allik darajasi

Keywords: Universal Declaration of Human Rights, social protection, social security, financial support of the population, level of poverty

Kirish. Dunyo mamlakatlarida aholining barcha qatlamlarining moddiy holatini yaxshilash, jamiyat a‘zolarining barchasini normal turmush kechirishlariga erishish masalasi har doim dolzarb masala bo‘lib qolmoqda hamda mazkur masala “Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi”da ham o‘z aksini topganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Mazkur deklarasiyaning 25-moddasida har bir inson o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo‘lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga borliq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ta‘minlanish huquqiga egaligi e‘tirof etilgan.[1] O‘zbekistonda ham insonlarning normal turmush kechirishlarini ta‘minlash masalasi mamlakat Konstitusiyasining tegishli moddalarida o‘z aksini topgan, xususan, har

bir shaxs ijtimoiy jihatdan muhtoj bo'lgan holatda ijtimoiy ta'minot olish va ijtimoiy himoyalani huquqiga egaligi belgilangan[2].

Jamiyat oldiga ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan yoki daromadi yo'q bo'lgan yoxud mehnat qilish layoqatini yo'qotgan insonlarni normal turmush kechirishlari uchun yetarli miqdorda moddiy ta'minlash mas'uliyatini yuzaga keltiradi. Bu esa ma'kur vazifani jamiyat nomidan davlat tomonidan amalga oshirilishini obyektiv tarzda yuzaga keltiradi. Shu sababli ham kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash davlatning muhim funksiyalaridan hisoblanadi. Davlat har doim insonlarni ijtimoiy ta'minlashni maksimal darajada qondirishga harakat qiladi hamda buning uchun davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan moliyalashtirib boradi. Aholining kam ta'minlangan qismini yetarli darajada ijtimoiy ta'minlash, ijtimoiy yordam berishdan erishiladigan samaradorlikni maksimalashtirish maqsadida ijtimoiy yordam paketlarini takomillashtirib boradi.

Bu borada O'zbekistonda so'ngi yillarda salmoqli ishlar amalga oshirildi. 2017-2022 yillar davomida ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyasiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish, aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish borasida salmoqli ishlar

amalga oshirildi. Buning natijasida O'zbekistonda kambag'allik darajasini sezilarli darajada kamaytirishga erishildi, 2021 yildagi 17% dan 2023 yilda 11%ga tushdi[3]. Biroq bu statistikaning o'zi ham kelgusida aholini ijtimoiy himoyalash va kam ta'minlanganlarni yetarli darajada moliyaviy qo'llab-quvvatlashda borasida ko'plab ishlar amalga oshirish zarurligini ifodalaydi.

Material va metod. Yuqorida ta'kidlanganidek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasi har qanday davlat oldidagi eng dolzarb masaladir. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali aholini kambag'allikdan chiqarish va yetarli daromadli bo'lishlariga erishish, pirovardida davlatning ijtimoiy himoyaga sarflagan moliyaviy mablag'larining samarali bo'lishini ta'minlash muhimdir. Bu yo'nalishda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar amalga oshirilgan, bundan tashqari muhtoj aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash xalqaro tashkilotlar va xalqaro moliya institutlarining doimiy diqqat markazidagi masaladir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy yordam dasturlari jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda xavfsizlik tarmog'i dasturlari taxminan 2,5 milliard odamni qamrab oladi. 120 dan ortiq past va o'rta daromadli mamlakatlar kam ta'minlangan oilalar uchun naqd pul o'tkazmalari dasturlarini amalga oshiradi va ularning 70 dan ortig'i ijtimoiy pensiya dasturlarini amalga oshiradi (*Jahon banki, 2018*). Ushbu dasturlar asosiy tovarlarni keng ko'lamli subsidiyalar o'rnini tobora ko'proq egallab, samaradorlikni oshirish va daromadlarni kambag'allarga qayta taqsimlash qobiliyatini oshirishni va'da qilmoqda. COVID-19 pandemiyasi ushbu siyosatlarini yanada kengaytirib, ularning kelajakdagi siyosatdagi rolini oshirdi[4].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu dasturlarni ishlab chiqish rivojlangan mamlakatlardagidan farq qiladigan muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, bu boradagi eng katta muammolardan biri bu maqsadli ijtimoiy yordam dasturlarini qanday amalga oshirishdir. Ammo, rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori daromadli mamlakatlardan farqli o'laroq, daromadlar to'g'risidagi ma'lumotni kuzatish qiyin, chunki qisman norasmiy ish va o'z-o'zini ish bilan ta'minlash keng tarqalgan bo'lib, ko'plab uy xo'jaliklari daromadlari solig'i tizimidan chetda qolgan[5]. Bu shuni anglatadiki, ijtimoiy to'lovlarni maqsadli belgilash haqida fikr yuritish uchun foydalaniladigan standart tizimlar, masalan, daromadga moslik chegaralari, samarali marjinal soliq stavkalariga mehnatning endogen javoblari rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida qo'llanilmaydi[6].

Bu rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqa maqsadli yondashuvlarning kuchayishiga olib keldi, bu esa, o'z navbatida, holatni yaxshiroq tushunish uchun maxsus ishlab chiqilgan tadqiqotlarni talab qildi. Xuddi shunday, dasturni loyihalash ham rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida tubdan farq qilishi mumkin. Misol uchun, muvaffaqiyatli rivojlanish tadbirlaridan biri uy xo'jaliklariga mahsuldor chorva mollari - tovuqlar, echkilar, sigirlar berish va ularni parvarish qilishda qo'llab-quvvatlashdir[7]. Ushbu turdagi dastur qashshoqlik tuzoqlari nazariyasiga asoslanadi, ya'ni ishlab chiqarishdagi qavariq bo'lmagan va jamg'arma cheklavlari bilan, katta pul o'tkazmalari uy xo'jaliklarini yuqori barqaror daromad darajasiga olib kelishi mumkin degan g'oyaga asoslanadi.

Qashshoqlik tuzoqlari rivojlangan sharoitlarda ham paydo bo'lishi mumkin bo'lsa-da, bu zarbalarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarning o'ziga xos xususiyati farq qilishi mumkin: aholining 63 foizi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullansa, kam daromadli mamlakatlarda mahsuldor chorvachilikni ta'minlaydigan aralashuv mantiqiy bo'lishi mumkin, ammo kambag'al va kambag'allarning katta qismi qishloq xo'jaligida bo'lmagan rivojlangan mamlakatlarda kamroq ma'noga ega bo'ladi[8].

Natijalar. O'zbekistonda so'nggi yillarda jahon tajribasiga tayangan holda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, kam ta'minlanganlarga beriladigan ijtimoiy to'lovlar va nafaqalarning eng kam miqdorlarini belgilashdagi eng muhim ko'rsatkich "eng kam iste'mol xarajatlari miqdori"ni aniqlash mezonini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 544-sonli Qarori asosida ishlab chiqildi hamda joriy etildi[9].¹ Hozirda minimal iste'mol xarajatlari ko'rsatkichidan kambag'allik mezonini (yoki chegarasi) sifatida foydalanib kelinmoqda.

Mazkur qaror asosida tasdiqlangan "Aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra "kambag'allik"ka tavsif berilgan bo'lib, unga ko'ra "Aholi iqtisodiy imkoniyatlarining hayot kechirish uchun zarur minimal ehtiyojlarini qondirishiga yetarli darajada bo'lmashligi" deb

¹ <https://lex.uz/docs/5606697> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Минимал истеъмол харажатлари қийматини

ҳисоблаш тартибини амалиётга жорий этиш тўғрисида"ги 544-сонли Қарори

tavsiflangan. Kambag'allik chegarasi sifatida aholining real xarajatlari tarkibidan kelib chiqib hisoblanadigan bir kishi uchun minimal iste'mol xarajatlari qiymati belgilangan. Minimal iste'mol xarajatlari esa uy xo'jaliklarining real iste'mol qiymatlari va tarkibini o'rganish asosida ularning sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal xarajatlarning hisoblangan qiymat orqali ifodalanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda kambag'allik darajasi — xarajati (yoki daromadi) minimal xarajatlarning qiymatidan past bo'lgan aholining jami aholiga nisbati orqali aniqlanmoqda hamda bu daraja aniq hisob qitoblar va tahlillarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6277 sonli Farmoni bilan 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa hamda bola 2 yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi o'rniga kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi joriy etildi. Bolalar nafaqasini tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi hamda to'lov muddati 6 oydan 12 oygacha oshirildi, uning miqdorini oiladagi bolalar sonidan kelib chiqib belgilanadi;

yakka-yolg'iz bo'lgan fuqarolarga, farzandi bo'lmagan yoki barcha farzandlari 18 yoshdan katta bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanishi belgilandi[10].

Mazkur nafaqalarni tayinlashda kam ta'minlangan bolali oilalarga nafaqani tayinlash minimal iste'mol xarajatlari qiymatidan kelib chiqib belgilanadi[11].

Ijtimoiy nafaqalarni tayinlashni to'liq avtomatlashgan holda «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi asosida amalga oshirish belgilangan.

Mazkur islohotlar natijasida kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar tayinlash mexanizmlarini takomillashtirishga va shaffoqligini ta'minlashga erishildi. Hamda kambag'allik chegarasini belgilashning aniq mezonlari ishlab chiqildi. Ijtimoiy nafaqalar miqdorlarini inflyasiya darajasidan kam bo'lmagan darajada indeksiya qilib borish tizimi yo'lga qo'yildi.

Aholining daromadlik darajasidan kelib chiqqan holda kambag'allik darajasidan past darajada turmush kechirayotganlarning aniq hisob kitoblarini yuritish imkoniyati yaratildi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, amalga oshirilgan islohotlar va tahlillar natijasida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi mavjud muammolar aniqlandi hamda kelgusida mazkur muammolarni hal etish borasida islohot va choralarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish, belgilangan ijtimoiy himoyaning qat'iy ta'minlanishini nazorat qilish, ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayoniga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish kabilarni amalga oshirish chora-tadbirlari o'z aksini topgan[12].

O'zbekistonda aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yaxshilanishi mamlakatning umumiy farovonligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish mumkin. Bunga erishish uchun ba'zi

istiqbolli ko'rsatkichlar alihida ahamiyatga ega hisoblanadi:

Kengaytirilgan ijtimoiy yordam dasturlari: Ijtimoiy yordamga muhtoj aholining kengroq qatlamini qamrab olish uchun ijtimoiy yordam dasturlarini kengaytirish va yaxshilash lozim. Bu pensiyalar, nogironlik nafaqalari, bolalar nafaqalari va ishsizlik nafaqalari kabi ijtimoiy nafaqalarning qamrovi va etarililigini oshirishni o'z ichiga oladi.

Qashshoqlikni maqsadli yo'lga qo'yish: kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz ota-onalar, qariyalar va nogironlar kabi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga qaratilgan qashshoqlikni bartaraf etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish muayyan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni samarali hal qilishi mumkin.

Ish bilan ta'minlash tashabbuslari: Ish o'rinlarini yaratish tashabbuslariga, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish kabi o'sish salohiyati yuqori bo'lgan tarmoqlarga sarmoya kiritish ishsizlik darajasini pasaytirishi va uy xo'jaliklari daromadlarini yaxshilashi mumkin.

Moliyaviy inklyuzivlik va mikromoliyalash: Moliyaviy xizmatlardan, shu jumladan mikromoliyadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish jismoniy shaxslar va kichik biznesga, ayniqsa, qishloq joylarida, ularga daromad keltiruvchi faoliyatga sarmoya kiritish va moliyaviy barqarorlikni oshirish imkonini beradi.

Ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish: Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish ishchi kuchining bandligini oshirishi va daromadlarning o'sishiga yordam beradi. Bu kasbiy ta'lim, kattalar ta'limi va raqamli savodxonlik dasturlariga sarmoya kiritishni o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash infratuzilmasini yaxshilash: Sog'liqni saqlash

infratuzilmasiga sarmoya kiritish va arzon tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish uy xo'jaliklarining sog'liqni saqlash xarajatlari tufayli kelib chiqadigan moliyaviy yukini kamaytirishi va shu bilan ularning moliyaviy farovonligini oshirishi mumkin.

Gender tengligini rag'batlantirish: gender tengligi va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan siyosat va dasturlarni amalga oshirish qashshoqlikni kamaytirish va oilalarning moliyaviy xavfsizligini yaxshilashga yordam beradi.

Fiskal barqarorlikni oshirish: byudjetni oqilona boshqarish, daromadlarni diversifikatsiya qilish va samarali davlat xarajatlari orqali fiskal barqarorlikni ta'minlash ijtimoiy xarajatlar uchun fiskal maydonni yaratishi va tashqi moliyalashtirishga bog'liqlikni kamaytirishi mumkin.

Ijtimoiy himoya tizimlarini mustahkamlash: ijtimoiy himoya tizimlarining institutsional salohiyati va boshqaruvini kuchaytirish ularning samaradorligini, shaffofligini va aholiga moliyaviy yordam ko'rsatishda hisobdorligini oshirishi mumkin.

Xalqaro hamkorlik va yordam: Xalqaro hamkorlik va ko'p tomonlama tashkilotlar va donor agentliklarning rivojlanish ko'magidan foydalanish O'zbekiston aholisini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yaxshilash bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha resurslar, texnik tajriba va ilg'or tajribalarni taqdim etishi mumkin.

O'zbekiston ana shu istiqbollarni ko'zlab, keng qamrovli siyosat va dasturlarni amalga oshirish orqali aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, qashshoqlikni kamaytirish, inklyuziv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni



rag'batlantirish borasida salmoqli yutuqlarga erishishi mumkin.

Xulosa. 2023 yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda aholining 11% dan ortiqroq qismi kambag'allik chegarasidan past darajada ekanligi O'zbekistonda hanuzgacha aholini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida muammoli jihatlar mavjudligini ifodalaydi. Bu esa kelgusida tizimni yanada samaraliroq yo'lga qo'yish

borasida islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi;

Aholining muhtoj qatlamlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi siyosat faqatgina uning yashashi uchun yetarli moliyaviy yordamni berishga emas, balki uning berilgan yordam natijasida kelgusida uning kambag'allikdan chiqishiga qaratilmog'i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>.
2. Шолдаров Д. КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 9.
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>.
4. Gentilini, Ugo, Mohamed Almenfi, Ian Orton, and Pamela Dale. 2020. "Social Protection and Jobs Responses to COVID-19: A Real-Time Review of Country Measures." World Bank, World Bank.
5. Jensen, Anders. 2022. "Employment Structure and the Rise of the Modern Tax System." American Economic Review, 112: 213–234.
6. Mirrlees, James A. 1971. "An exploration in the theory of optimum income taxation." The Review of Economic Studies, 38(2): 175–208.
7. Banerjee, Abhijit, Amy Finkelstein, Rema Hanna, Benjamin Olken, Arianna Ornaghi, and Sudarno Sumarto. 2021. "The Challenges of Universal Health Insurance in Developing Countries: Experimental Evidence from Indonesia's National Health Insurance." American Economic Review, 111: 3035–3063.
8. ILOSTAT. 2019. "Employment in Agriculture (% of Total Employment) -Low Income." International Labour Organization.
9. <https://lex.uz/docs/5606697> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 544-sonli Qarori.



10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6277 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5572509>.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 654-sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>